

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ISROILOV BEKTOSH ERKINOVICH

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA VORISIYLIKKA AN‘ANAVIY VA
INNOVATSION YONDASHUVLARNING JAMIYAT
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

**Contents of the abstract of the dissertation of the
Doctor of Sciences (DSc)**

Isroilov Bektosh Erkinovich

Globalashuv sharoitida vorisiylikka an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni..... 3

Исроилов Бектош Эркинович

Роль традиционных и инновационных подходов к преемственности в развитии общества в условиях глобализации..... 31

Isroilov Bektosh Erkinovich

The Role of Traditional and Innovative Approaches to Succession in the Development of Society under Globalization..... 63

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 67

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ISROILOV BEKTOSH ERKINOVICH

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA VORISIYLIKKA AN‘ANAVIY VA
INNOVATSION YONDASHUVLARNING JAMIYAT
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.DSc/Fal70 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ((ik.falsafa.nuuz.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tuychiev Berdiqul Turaqulovich
falsafa fanlari doktori, professor

Qodirov Anvar Qahhorovich
falsafa fanlari doktori, professor

Choriyev Sanjar Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 6-sentabr soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Yoshlar Ittifoqi madaniyat saroyi. Tel.: (99871) 246-67-72; faks: (99871) 246-67-72; e-mail: ik-falsafa@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ ___-raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71; faks: (99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 23-avgustda tarqatildi.
(2025-yil 23-avgustdagi 17-raqamli reestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

G.M. Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'.G'. Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar insoniyat madaniy munosabatida jiddiy transformatsiyalarni kuchaytira borib, xalqlarni birlashtiruvchi va ularning o'ziga xosligini saqlab qoluvchi vorisiylikni yangi innovatsion qarashlar bilan to'qnash kelayotganligi bilan xarakterlanmoqda. An'analar va innovatsiyalar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi milliy madaniyatlarning yo'qolishi yoki bir xil ko'rinishga kelish xavfini keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy qadriyatlarni ortiqcha konservatizm sifatida ko'ruvchi hamda yangiliklarni mutlaq ustuvor deb biluvchi nigilistik qarashlar shakllanmoqda. Shu sababli, vorisiylikni an'anaviy va innovatsion yondashuvlar orqali mohiyatini ochib berish va bu ikki qarashni uyg'unlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida qolmoqda.

Dunyo ilm-fanida ijtimoiy barqarorlikni taminlashda muhim omil bo'lib kelayotgan vorisiylikka bag'ishlangan nazariy-metodologik va amaliy tadqiqotlar muntazam olib borilmoqda. Jumladan, an'anaviy qadriyatlarning saqlanib qolishi va innovatsion qarashlar bilan uyg'unlashuvi, tarixiy-madaniy merosning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari bilan hamohangligi, ijtimoiy-gumanitar tamoyillarning vorisiylik negizidagi o'zgarishlari, shuningdek, vorisiylik va yangilikning jamiyatda axloqiy-estetik muvozanatni saqlashdagi o'rni bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, globallashtirish natijasida an'anaviy qadriyatlarning mohiyatan o'zgarayotganligi, milliy madaniyatlarning cheksiz integratsiyaga bo'lgan intilishi ijtimoiy muhitda o'ziga xos tartibsiz o'zgarishlarni yuzaga keltirayotganligi sababdan vorisiylikda an'anaviylik va innovatsion yondashuvlar o'rtasidagi muvozanatni barqarorlashtirish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ta'sir mexanizmlarini tadqiq etish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda an'anaviy qadriyatlar va innovatsion yondashuvlarning uyg'unligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. "Avvalambor, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz"¹. Shu nuqtayi nazardan, vorisiylik asosida ajdodlarimiz milliy madaniy merosini saqlab qolish va innovatsion taraqqiyotga moslashtirish hamda ular asosida jamiyatning axloqiy-estetik qiyofasini shakllantiruvchi konseptual mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 18-fevralgi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 277.

muhitni sogʻlomlashtirish, mahalla institutini yanada qoʻllab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” farmonlari, shuningdek, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ–4038-son “Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” va 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” nomli ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹.

Globalashuv sharoitida vorisiylikka anʼanaviy va innovatsion yondashuvlarning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni boʻyicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy taʼlim muassasalarida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Stanford University (AQSH), Heidelberg University (Germaniya), National University of Singapore (Singapur), Kyoto University (Yaponiya), MGU im. Lomonosova va Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyy universitet (Rossiya), Nazarbayev University (Qozogʻiston), Istanbul University (Turkiya) hamda Oʻzbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat chet tillar instituti olimlari tomonidan vorisiylikning falsafiy, madaniy, innovatsion va tarixiy jihatlari boʻyicha chuqur tadqiqotlar olib borilgan.

Globalashuv jarayonida anʼanaviy va innovatsion vorisiylikning bir-biriga taʼsiri hamda uygʻunligi boʻyicha tadqiqotlar ajdodlar merosini yoshlarga yetkazish imkoniyatlarining takomillashishini ilmiy asoslab berilgan (University of Cambridge, Buyuk Britaniya); madaniy merosni saqlash va uning innovatsiyalar orqali transformatsiyasini amalga oshirish usullariga qaratilgan (Stanford University, AQSH); Yevropada globalashuv jarayonida madaniy vorisiylikni tiklash va zamonaviylik bilan uygʻunlashtirish masalalari tahlil qilingan (Heidelberg University, Germaniya); Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi davlatlarda innovatsion yondashuvlar orqali anʼanaviy qadriyatlarni rivojlantirishning ijtimoiy

¹ <https://www.library.upenn.edu/>; <https://www.usu.edu/>; <http://uu.diva-portal.org/smash/record.jsf?pid=diva2%3A378042&dswid=-9354>; <https://www.dissertations.se/dissertation/982b89d283/>; <https://www.univie.ac.at/>; <https://www.uibk.ac.at/de/>; <https://www.verlagdrkovac.de/978-3-8300-4446-8.htm>; (<https://viewer.rsl.ru/ru/rsl01003463119?page=2&rotate=0&theme=white>); <https://www.tsutmb.ru/>; <https://www.kubsu.ru/ru/science/dissertations/d-21210118/institut-braka-v-prave-islamskih-gosudarstv-istoriko-pravovoe>; (<https://core.ac.uk/download/pdf/197309394.pdf> va file:///C:/Users/User/Downloads/22_3-4-0039.pdf) <https://www.unipage.net/ru/235/hiroshima-university>; <https://www.kihasa.re.kr/hswr/assets/pdf/489/journal-26-2-95.pdf>, <https://www.kihasa.re.kr/publish/report/view?type=policy&seq=29292>, <http://www.mediwelfare.com/news/articleView.html?idxno=380>; <https://www.kaznpu.kz/kz/>.

taraqqiyotga ta'siri ochib berilgan (National University of Singapore, Singapore); globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning innovatsion taraqqiyot bilan uyg'unlashuvi bo'yicha ilg'or nazariyalar ishlab chiqilgan (Kyoto University, Yaponiya); vorisiylik masalalarining sotsiomadaniy va falsafiy tahlillari bo'yicha salmoqli ilmiy ishlanmalar, madaniy merosni saqlab qolishning huquqiy va ijtimoiy tamoyillari falsafiy rakursda aniqlangan (Lomonosov nomidagi MDU, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya); vorisiylikning ta'lim va tarbiya sohasidagi o'rni, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar asosida yoshlarni tarbiyalashning ilg'or uslublari ishlab chiqilgan (Nazarbayev University, Qozog'iston); tarixiy va madaniy vorisiylikning globallashuv sharoitida integratsiyalashuv jarayoniga ta'siri o'rganilgan (Istanbul University, Turkiya); globallashuv sharoitida vorisiylikka an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning milliy taraqqiyotdagi ahamiyati va ularni amalga oshirish usullari bo'yicha salmoqli tadqiqotlar olib borilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, O'zbekiston).

Dunyoda ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar bir necha ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi: globallashuv va madaniy vorisiylikni uyg'unlashtirish masalalari; an'anaviy qadriyatlarning innovatsion rivojlanishdagi o'rni; madaniy merosni saqlab qolish va yangi avlodga yetkazish usullari; an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarning jamiyatdagi roli va ular o'rtasidagi integratsiya jarayonlari. Ushbu masalalar bo'yicha olingan ilmiy natijalar jamiyat taraqqiyoti uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Vorisiylik asosida madaniy merosni saqlab qolinishi va keyingi avlodlarga uzatilish zaruriyati barcha davrlarda olimlar hamda ijtimoiy faollarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, an'anaviy qadriyatlar va tarixiy merosni saqlab qolish, innovatsion yondashuvlar asosida madaniy boyliklarni qayta talqin qilish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda urf-odatlarining ahamiyati belgilangan. Insoniyat sivilizatsiyalarining asosi va jamiyatlar barqarorligida vorisiylik an'anasi muhim omil ekanligi tadqiqot yo'nalishi dolzarbligini yanada oshirdi. So'nggi asrlarda ushbu tadqiqot ishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh. Xorijlik olimlar J.Delyoz¹, A.Makintayr, E.Kassirer² R.Merton, A.Sen-Simon, Z.Bauman, A.Giddens, S.Xantington, D.Dyui, P.Rikyor, J.Derrida, M.Fuko, M.Veber, E.Dyukgeym, Y.Xayzingalar vorisiylik ijtimoiy institutlar orqali qadriyatlarning uzatilishi va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligini tahlil qiladilar. Ushbu jarayon madaniy merosning iqtisodiy va siyosiy jihatlariga ta'sirini aks ettirib, bilim hamda boshqaruv munosabatlari doirasida tarixiy jarayonlarning davomiyligini belgilaydi. Shuningdek, an'analarning doimiy o'zgarish va yangi kontekstlarda qayta talqin qilinishi lozimligi bois vorisiylikni ko'p qirrali mohiyati ularning tadqiqotlarida aks etgan. Shu bilan birga, X. Gadamer

¹Маркова Л. А. Философия из хаоса. Ж. Делёз и постмодернизм в философии, науке, религии. – М.: Канон, 2004. -ISBN 5-88373-164-3.

² Кассирер, Э. Натуралистическое и гуманистическое обоснование философии культуры // Постигание культуры : Концепции, дискуссии, диалоги : Ежегодник / Рос. ин-т культурологии и др. Вып. 7. - 1998. ISBN 5-7196-0029-9

vorisiylikni tarixiy tafakkur davomiyligi ekanligini tushuntirib, an'analarni insoniyat dunyoqarashining ajralmas qismi sifatida ta'kidlagan. A. Toynbi¹ sivilizatsiyalarning rivojlanishi va tanazzulini tahlil qilgan ekan, vorisiylik o'zidan oldingi madaniyat hamda qadriyatlarni moslashuvchan tarzda o'zlashtirish orqali amalga oshirishini isbotlagan. K.Levi-Stros jamiyatlarda miqlar va an'analar qanday qilib ajdodlardan-avlodlarga o'tishini hamda vorisiylikni madaniy kodlarning uzatilishi orqali saqlanib kelayotganligini o'rgangan. P.Burdyo vorisiylikni "madaniy kapital" tushunchasi orqali izohlab, an'ana va bilimlarning ijtimoiy tabaqalar orqali qanday meros bo'lib o'tishini tahlil qilgan.

Ikkinchi guruh. MDHda vorisiylikning oilaviy, madaniy va huquqiy an'analar doirasida rivojlanib, milliy o'zlikni saqlab qolish, iqtisodiy va siyosiy transformatsiyalar sharoitida yangi ijtimoiy institutlar hamda zamonaviy modellarga moslashuvchanligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borgan O.V.Rojensova, T.I.Mopapy, E.Sh.Bestayeva, V.A.Samkova, V.K.Kiryuchkov, V.A.Fedotov, N.V.Sergeyeva, N.P.Kostina², O.V.Kashirina, M.S.Abdullox³, S.V.Barishnikov, V.V.Averyanov⁴larning fundamental-amaliy g'oyalari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, N.M.Mamedova⁵ madaniy vorisiylikning mohiyati va asoslarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilgan bo'lsa, P.V.Karev⁶ shaxs va jamiyat madaniy salohiyatini rivojlantirishning aniq tizimli shakli hamda tarixiy bosqichi sifatida ijtimoiy-madaniy vorisiylikni o'rgangan. F.V.Damindarova jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy an'analarni saqlab qolish va ularning zamonaviy qoidalar bilan uyg'unlashishini ta'minlashda ijtimoiy-falsafiy, konseptual asoslarni ishlab chiqqan. M.I.Dolgushin an'ananing tarixiy rivojlanishini va zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ochib bergan.

Uchinchi guruh. O'zbekistonda milliy an'analar xususida falsafa, pedagogika, adabiyotshunoslik va tarix fanlari sohasida R.S.Ataxonov⁷, M.Kaxharova, S.M.Matkarimova, T.I.Sultanov, N.Dilmuradova, N.N.Narziyev, A.S.Ismaylov, U.Qosimov, G.O'.Ahmedova, U.M.Abdalov, B.R.Xalmuratov, M.B.Utebayev, I.T.Baltayeva, R.T.Xakimov, G.R.Bekimbetova, Z.A.Rasulova⁸, M.M.Yuldasheva, U.Qosimov, Z.N.Ortiqovalar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Jumladan, o'zbek xalq bayramlarining vorisiylik asosida milliy qadriyatlarni an'anaviy davom etishi

¹ Chekmeneva T.G. Methodology of the cognition of history of A. Toynbee // Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research. 2019. №1 (3). Pp-71-82.

²Костина Н.П. Трансформация универсалий христианской религии и их влияние на динамику духовной культуры: Дис. ...канд. филос. наук. - Омск, 2003. -134 с.

³Абдуллох М.С. Особенности формирования культурной идентичности таджикостанского общества в условиях глобализации: состояние и перспективы: Дис. ...канд. филос. наук. - Душунбе, 2023. -174 с.

⁴Аверьянов В.В. Традиция как методологическая проблема в отечественной культурологии XX века: Дис. ...док. филос. наук. – М., 2011. -416 с.

⁵Мамедова Н.М. Преемственность в культуре: Социально-философский анализ: Дис. ...док. филос. наук. – М., 2001. -294 с.

⁶Карев П.В. Социокультурная преемственность и горизонты развития личности: Дис. ...канд. филос. наук. - Уфа, 2002. -147 с.

⁷ Атаханов Р.С. Фарғона водийси қорақалпоқларида аънавий ва замонавий этноинтеграцион жараёнлар: Тар. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. – Термиз: АнМашИ, 2021. - 156 б.

⁸ Расулова З.А. Ўзбекларда оила-никоҳ аъналарининг ижтимоий ва этник психологияси: Психо. фан. док. (DSc)... дисс. –Тошкент, ТДПУ, 2018. - 263 б.

ijtimoiy munosabatlarda etnik identlikni saqlab kelayotganligi U.Qoraboyev¹ tadqiqotlarida aks etgan. G.S.Sultanova² o‘z tadqiqot ishida postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi xususiyatlarini g‘oyaviy vorisiylik va innovatsion yondashuv nuqtai nazaridan ochib bergan. T.N.Shokirov³ o‘zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda vorisiylik va unda musiqiy merosning o‘rnini ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritib bergan. R.T.Zohirov⁴ yangilanayotgan O‘zbekiston oilaviy munosabatlarida an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar mutanosibligi avlodlararo vorisiylikni ta’minlash omili ekanligini asoslagan.

Ammo yuqorida sanab o‘tilgan ishlarda bugungi globallashuv jarayonida vorisiylikning ahamiyati, an’anaviy va zamonaviy shakllarini uyg‘unlashtirish muammolari hamda jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni yaxlit ilmiy tadqiqot sifatida ishlanmagan. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishida vorisiylikda an’anaviy va innovatsion yondashuvlar o‘rtasidagi integratsiya, sintez va o‘zaro ta’sir mexanizmlarining bog‘liqligi hamda samaradorligi tadqiq etiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an’analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” (2020-2022) mavzusidagi PZ-2020022811 raqamli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi globallashuv sharoitida vorisiylikka an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning shakllanishi, integratsiyasi hamda jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vorisiylik jarayonida an’anaviy qadriyatlar, madaniy meros va tarixiy tajriba asosidagi yondashuvlarning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy jihatlarini tahlil qilish;

zamonaviy texnologiyalar yordamida innovatsion yondashuvlarning vorisiylik jarayonidagi rolini jamiyat taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasini baholash;

an’anaviy va innovatsion yondashuvlar o‘rtasidagi integratsiya, sintez va o‘zaro ta’sir mexanizmlarining bog‘liqligi hamda sinergetik samaradorligini tahlil qilish;

globallashuvning vorisiylik jarayoniga ko‘rsatayotgan ta’siri va natijasidagi o‘zgarishlarning ijobiyligini saqlashda mahalliy amaliyot hamda xalqaro tajribalar uyg‘unligini tahlil qilish;

vorisiylik jarayonida qo‘llanilayotgan an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning samaradorligini solishtirish hamda ularning afzalliklari, kamchiliklarini aniqlash;

¹ Qoraboyev U. Ўзбек халқи байрамлари. -Тошкент: Шарк, 2002, 168-б.

² Султанова Г.С. Постноклассик илмий тафаккур тарзида ғоявий ворислик ва инновация муаммолари: Фал. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. – Самарқанд, СамДУ, 2018. - 137 б.

³ Shokirov T.N. O‘zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda vorisiylik: ijtimoiy-falsafiy tahlil (Musiqiy meros misolida): Fals. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD)... diss. –Andijon: FarDu, 2023. -136 b.

⁴ Зоҳиров Р.Т. Оилада авлодлараро муносабатларни мустаҳкамлаш: анъанавийлик ва замонавийлик: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, ҚарДУ, 2020. - 136 б.

jamiyat taraqqiyoti, siyosiy boshqaruv, iqtisodiy barqarorlik uchun an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni integratsiyalash orqali samarali tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida globallashtirish sharoitida vorisiylikka oid an'anaviy va innovatsion yondashuvlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti vorisiylik jarayoniga an'anaviy va innovatsion yondashuvlar integratsiyasini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning tarixiylik, taqqoslash, mantiqiylik, vorisiylik, tizimlilik, kuzatuv, obyektivlik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

globallashtirish sharoitida avlodlar o'rtasidagi bilim uzatishning texnologik va madaniy mexanizmlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan an'anaviy hamda innovatsion yondashuvlarni sintez qiluvchi yangi "Virtual etnografik arxivlar", "Interaktiv muzeylar", "Gamifikatsiyalangan o'qitish", "Smart qishloqlar" kabi gibridd modellar samaradorligi isbotlangan;

ijtimoiy institutlar va ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim hisoblangan vorisiylikni innovatsion yondashuv asosida ta'minlash uchun sun'iy intellekt, raqamli platformalar asosida qadriyatlarni saqlashdagi ma'lumotlarni kontekstualizatsiya qilish hamda interaktiv ta'lim platformalarini yo'lga qo'yish singari mexanizmlar ko'rsatib berilgan;

vorisiylikka an'anaviy va innovatsion yondashuvlar asosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda empirik (so'rovnomalar, statistik tahlil, korrelyatsion) metodlar solishtirilib, an'anaviy (xalq og'zaki ijodi, tarixiy tajribalar, madaniy identitet) va institutsional (davlat boshqaruvi, ta'lim tizimi, jamoat institutlari) omillar aniqlangan;

O'zbekistonda vorisiylikning jamiyat barqarorligidagi ahamiyatiga oid an'anaviy yondashuvlar bilan zamonaviy innovatsion strategiyalar o'rtasidagi kognitiv, kommunikativ va emotsional sintez jarayonlari asoslangan;

global va mintaqaviy miqyosda vorisiylikka oid an'anaviy-innovatsion yondashuvlarning o'zaro ta'sirini metaforik, dialektik, kognitiv metodlar yordamida sintez qilib, jamiyat taraqqiyotining madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorligini mustahkamlovchi multidistsipliner paradigmani shakllantirishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

globallashtirish sharoitida o'zbek milliy hunarmandchiligi, xalq amaliy san'ati va me'moriy merosini asrash hamda rivojlantirishda vorisiylik tamoyillaridan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilib, ushbu yo'nalishda madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, ularni zamonaviy dizayn texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ta'lim tizimida innovatsion va an'anaviy yondashuvlar uyg'unligi asosida milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish maqsadida, "Milliy meros va zamonaviy taraqqiyot" dasturi ishlab chiqilib, unda tarixiy tajribalar, etnoestetik qadriyatlar va innovatsion tafakkur asosida yangi kompetensiyalar shakllantirish, maktab o'quvchilari va talabalar uchun "Vorisiylik va zamonaviylik" nomli maxsus seminar-treninglar tashkil etish, shuningdek, milliy hunarmandchilik, me'morchilik

va madaniy urf-odatlarini virtual laboratoriyalar orqali o'rganish kabi mexanizmlar taklif qilingan.

milliy urf-odat va an'analarni zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida targ'ib qilish mexanizmlari ishlab chiqilib, virtual muzeylar va interaktiv o'quv platformalar orqali o'zbek xalqining madaniy merosini keng targ'ib etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla va madaniyat markazlari orqali vorisiylik tamoyillarini mustahkamlash maqsadida, yoshlar va mahalla oqsoqollari o'rtasida madaniy-ma'rifiy uchrashuvlar tashkil etish, oilaviy an'analar va hunarmandchilik sirlarini yosh avlodga o'rgatish uchun "Ustoz-shogird" dasturini kengaytirish, milliy merosga oid targ'ibot ishlarini olib borish uchun raqamli platformalar yaratish hamda oilaviy qadriyatlar bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish singari amaliy dasturlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot mavzusining aniq qo'yilganligi, natijalarning respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya to'plamlari, OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganligi, nashr etilgan monografiya, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda ilgari surilgan nazariy xulosalardan vorisiylikka an'anaviy va innovatsion yondashuvlar doirasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida, madaniy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ilmiy asoslashda, falsafa, madaniyatshunoslik, tarix, sotsiologiya, innovatsion texnologiyalar kabi fanlarning ilmiy-nazariy ma'lumotlarini boyitishda, vorisiylik tamoyillarini innovatsion rivojlanish jarayonlariga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy-nazariy yondashuvlarni shakllantirishda, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy merosga oid innovatsion, fundamental loyihalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ilgari surilgan taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlar faoliyatida, innovatsion tafakkurni shakllantirish orqali milliy o'zlikni saqlagan holda global taraqqiyotga moslashish dasturlarini ishlab chiqishda, viloyatlardagi mavjud milliy madaniyat markazlarida, mahallalar, ta'lim-tarbiya dargohlari, ijodiy uyushmalar o'z amaliy faoliyatlarida hamda mavzuga oid fanlarda qo'llaniladigan darslik va o'quv-metodik materiallarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Insonlarning vorisiylik tamoyiliga uyg'un holda an'anaviy va innovatsion yondashuvlarini falsafiy tahlil etish natijasida erishilgan ilmiy xulosalar asosida:

globallasuv sharoitida avlodlar o'rtasidagi bilim uzatishning texnologik va madaniy mexanizmlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan an'anaviy hamda innovatsion yondashuvlarni sintez qiluvchi yangi "Virtual etnografik arxivlar", "Interaktiv muzeylar", "Gamifikatsiyalangan o'qitish", "Smart qishloqlar" kabi gibridd modellar samaradorligi isbotlanganligiga doir taklif-tavsiyalardan Samarqand

davlat chet tillar instituti bilan hamkorlikda Yevropa Ittifoqi Erasmus + dasturining 2016-2018 yillarga mo'ljallangan 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli xalqaro amaliy grant loyihasi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 11-martdagi 684/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, avlodlar o'rtasidagi almashinuvlarda ajdodlar yaratgan milliy mentalitetning madaniy aloqalari kreativ tarzda boyitishiga falsafiy jihatdan xizmat qilgan;

ijtimoiy institutlar va ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim hisoblangan vorisiylikni innovatsion yondashuv asosida ta'minlash uchun sun'iy intellekt, raqamli platformalar asosida qadriyatlarni saqlashdagi ma'lumotlarni kontekstualizatsiya qilish hamda interaktiv ta'lim platformalarini yo'lga qo'yish singari mexanizmlar ko'rsatib berilganligiga doir taklif va tavsiyalardan Jizzax viloyati "Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazi tomonidan "Jamiyat barqarorligini ta'minlashda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning inovatsion omillari" mavzusidagi 2021-yilda bajarilgan 07-raqamli amaliy loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Jizzax viloyati "Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazining 2025-yil 14-fevraldagi 10-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning vorisiylikka innovatsion yondashuvda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoniga bo'lgan qizivishlarini oshirishga xizmat qilgan;

vorisiylikka an'anaviy va innovatsion yondashuvlar asosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda empirik (so'rovnoma, statistik tahlil, korrelyatsion) metodlar solishtirilib, an'anaviy (xalq og'zaki ijodi, tarixiy tajribalar, madaniy identitet) va institutsional (davlat boshqaruvi, ta'lim tizimi, jamoat institutlari) omillar aniqlanganligiga oid taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining loyihalari samardorligini oishirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining 2025 yil 13 fevraldagi 14/2-son ma'lumotnomasi). Natijada, Senat faoliyatida vorisiylikning rolini oshirishga qaratilgan tadbirlar, jumladan, keksa va yosh avlod o'rtasida dialektik aloqadorlikning kuchayishiga xizmat qilgan;

O'zbekistonda vorisiylikning jamiyat barqarorligidagi ahamiyatiga oid an'anaviy yondashuvlar bilan zamonaviy innovatsion strategiyalar o'rtasidagi kognitiv, kommunikativ va emotsional sintez jarayonlari asoslanganligiga oid taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samardorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar" 21-bandi "Ijtimoiy-siyosiy, axborot psixologik, g'oyaviy-mafkuraviy hurujlar hamda turli yot va buzg'unchi g'oyalarning mazmun mohiyatini ochib berishga doir tahliliy ko'rsatuv va tokshoular tayyorlash" mavzusidagi targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 18-martdagi 10/136-son

ma'lumotnomasi). Natijada, markazning huddularda olib boradigan tadbirlarida vorisiylik tamoyiliga monand innovatsion yondashuvlarning milliy ruhda rivojlanishiga xizmat qilgan;

global va mintaqaviy miqyosda vorisiylikka oid an'anaviy-innovatsion yondashuvlarning o'zaro ta'sirini metaforik, dialektik, kognitiv metodlar yordamida sintez qilib, jamiyat taraqqiyotining madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorligini mustahkamlovchi multidistsipliner paradigmani shakllantirishi ochib berilganligiga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi loyihalariining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasining 2025-yil 14-martdagi 01/154-son ma'lumotnomasi). Natijada, nuroniylarning vorisiylik tamoyili asosida jamiyatda yoshlarga an'anaviy yondashuvlarni o'rgatishi jarayonining kengayishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 21 ta, jumladan, 8 ta xalqaro va 13 ta ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 37 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta maqola (jumladan, 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 220 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqot obyekti va predmeti, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari; xorijiy, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning "**Vorisiylik jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida vorisiylik jarayonining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uning obyektiv zarurati va metodologik asoslari tahlil qilinagan. Shu bilan birga an'anaviy qadriyatlar va innovatsion yondashuvlarning uyg'unlashuvi, avlodlararo vorisiylikni ta'minlash mexanizmlari hamda ularning jamiyat barqarorligiga ta'siri atroflicha o'rganilgan. Globallashuv sharoitida vorisiylik tamoyillarining qanday o'zgarayotgani, an'anaviy institutlarning yangi davr talablariga moslashish jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan.

Vorisiylik – bu asosan, ajdodlardan-avlodlarga o'tadigan, ijtimoiy tizimning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan qadriyatlar, bilimlar, madaniyat va an'analarning

uzluksizligi bilan bog‘liq jarayon. Tarixiy nuqtai nazardan, vorislik ijtimoiy tizimlarning va madaniyatning davomiyligini ta‘minlovchi mexanizm sifatida qaraladi. Insoniyat tarixida har bir avlod o‘zining o‘tmishdagi bilimlarini, qadriyatlarini va tajribalarini yangi avlodlarga yetkazadi. Ularni jamiyatning barqaror rivojlanishiga yo‘naltirib keladi. “Vorislik - tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti jarayonida hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik; jamiyatda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning avloddan avlodga o‘tishi hamda o‘zlashishi; an‘analarning amal qilishi”¹.

Vorisiylikning mohiyati shundaki, jamiyat o‘z tarixidagi muhim davrlarni, qiyinchiliklarni va yutuqlarni yangi avlodlarga yetkazadi. Bu jarayon o‘z-o‘zidan jamiyatning madaniy, axloqiy, siyosiy va iqtisodiy o‘shishiga yordam beradi. Xususan, har bir avlod o‘zidan oldingi ajdodlariga nisbatan ko‘plab o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga jamiyatni takomillashtirish va yangi bilimlarni yaratishga turtki berish uchun ham mas‘uliyatli bo‘ladi. “Vorislik – taraqqiyot jarayonida yangilik bilan eskilik o‘rtasidagi obyektiv zaruriy aloqa, ushbu jarayon va aloqadorlikka asoslangan qonunning eng muhim belgilaridan biri, o‘tmishning zaruriy jihatlarini saqlab qolish va yanada boyitish usuli. Vorislik tamoyiliga ko‘ra, har qanday ilgarilab rivojlanish jarayonlarida harakatning har bir yuqoriroq shakli uning quyi shakllari bilan aloqador bo‘lganligidan, ularni butunlay inkor qilmaydi, balki qulay, mos qismini o‘ziga kiritib, bo‘ysundirib oladi”².

Vorisiylik inson huquqlari bilan bevosita bog‘liq. Har bir jamiyat o‘zining ijtimoiy tizimida asosiy huquqlarni, tenglikni va adolatni o‘zida aks ettiradi. Vorisiylik jarayonida bu huquqlar avlodlar o‘rtasida uzatiladi. Bu keyingi avlodlarga inson huquqlarini anglash imkoniyatini yaratadi. Inson huquqlari va erkinliklarining vorisligi jamiyatda ijtimoiy adolatni, tenglikni va shaxsiy erkinlikni ta‘minlashga yordam beradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki: **Vorisiylik – bu ajdodlar tajribalarini, genofondini saqlash, ularni rivojlantirish va keyingi avlodlarga yetkazish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat biologik, balki madaniy, ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy merosni ham o‘z ichiga oladi. Vorisiylik jamiyatdagi barqarorlikni ta‘minlash, avlodlarni jamiyatga moslashtirish va ijtimoiy tizimning uzluksizligini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar va yangiliklar vorislik jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Bu esa yangi avlodlarga ilg‘or g‘oyalar, qadriyatlar va bilimlarni taqdim etadi.**

Vorisiylik an‘analarning shakllanishi obyektiv zarurat sifatida bir qator ijtimoiy, madaniy va falsafiy omillarga asoslanadi. Ushbu jarayon insoniyat jamiyatining uzluksizligi va uyg‘unligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi:

Birinchidan, vorisiylikning zarurati inson tabiatining o‘zi bilan bog‘liq. Har bir jamiyat avlodlar tajribasidan foydalanishga intiladi. Chunki bu tajriba ijtimoiy

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “В” ҳарфи –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2013. 243-бет.

² Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-қитоб. –Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2023. 239-бет.

hayotni boshqarish va muvozanatni saqlashda bebaho ahamiyatga ega. Tarixiy meros orqali insonlar o'zligini anglaydi. Milliy va madaniy o'ziga xoslikni shakllantiradi. Masalan, qadimiy davrlardan boshlab shakllangan axloqiy qoidalar va urf-odatlar bugungi kunda ham insonlarning kundalik hayotida muhim o'rin egallab kelmoqda.

Ikkinchidan, vorisiylik an'alarini shakllantirish jamiyatni barqarorlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tizimlar doimiy ravishda o'zgarib borsada, vorisiylik orqali saqlanib qolgan an'alar jamiyatni ichki nizolardan himoya qiladi. Uning dinamikasini uyg'unlashtiradi. Bu ayniqsa madaniy xilma-xillik mavjud bo'lgan jamiyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, madaniyatni saqlash va rivojlantirish jarayonida vorisiylik asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, vorisiylik zamonaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda ham muhim ahamiyatga ega. O'tmishdan olingan bilim va tajribalar yangi g'oyalarning shakllanishi uchun zamin yaratadi. Shu jihatdan qaraganda, vorisiylik faqat o'tmishga qaratilgan jarayon emas, balki kelajakka yo'naltirilgan harakat ekanini ko'rish mumkin. An'anaviy bilim va tajriba zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirilganda, u yanada boyiydi hamda jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi.

To'rtinchidan, vorisiylik ijtimoiy integratsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamiyat ichidagi turli guruhlar va avlodlar o'rtasida uzviy aloqa o'rnatishda vorisiylik an'analari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu jarayon orqali milliy qadriyatlar mustahkamlanadi. Yosh avlodlarning ijtimoiy faolligi va mas'uliyati oshadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, vorisiylikning zarurati insonning ontologik mohiyati bilan bog'liq. Har bir shaxs o'zining "o'tkinchi" ekanligini anglab, o'zidan keyin iz qoldirishga intiladi. Bu intilish jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'tmish tajribasini anglash va uni avlodlarga yetkazish orqali inson o'zining tarixiy missiyasini bajaradi. Demak "vorislik bu eskilik, ortda qolganlik deb qarashlardan voz kechish lozim, chunki aynan vorisiylik zamonaviylashuv rivoji uchun tom ma'noda asos, negiz bo'lib xizmat qiladi. Har bir vorisiylik zamonaviylikka shart-sharoitlar yaratib berish bilan bir qatorda, unga xos bo'lgan xususiyatlarning shakllanishini, o'zaro moslashuvini ta'minlab beruvchi asosiy ustqurma ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Chunki zamonaviylik jarayoni transformatsiya jarayonining birdan-bir natijasi emas"¹.

Avlodlararo vorisiylikning muvaffaqiyati ko'p jihatdan oila institutiga bog'liq. Oila avlodlararo bog'liqlikning eng muhim uzviy qismi bo'lib, unda insonning asosiy axloqiy qadriyatlari shakllanadi. Oila muhitida farzandlar madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Kattalarning hayotiy tajribasini o'zlari uchun na'muna sifatida qabul qiladi. Shu bilan birga, ta'lim tizimi ham ushbu jarayonning samarali tashkil etilishida katta ahamiyatga ega. Ta'lim madaniy merosning sistematik

¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-қитоб. –Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2023. 239-240

ravishda o'rganilishini ta'minlaydi. Kelajak avlodga o'z tarixini chuqur anglash imkonini beradi. Innovatsion pedagogik metodlar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin.

Ijtimoiy muhit esa vorisiylikning keng miqyosda tarqalishini ta'minlaydigan omil hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlikning rivojlanishi, jamoat tashkilotlari va davlatning qo'llab-quvvatlashi bu jarayonni yanada samarali qiladi. Davlat siyosati madaniy merosni himoya qilish va avlodlararo bog'liqlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Milliy dasturlar, qonunchilik va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar yordamida vorisiylik jarayonini qo'llab-quvvatlash zarur. Ayniqsa, xalqaro madaniy almashinuv dasturlari orqali milliy madaniyatning global miqyosda tanitilishi va uning kelajak avlodlarga qadrliligi his qilinishi ta'minlanadi.

Dissertatsiyaning **“Vorisiylikka an'anaviy va innovatsion yondashuvning ijtimoiy-falsafiy va dialektik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida vorisiylikning an'anaviy va innovatsion yondashuvlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir, milliy va xalqaro tajribalar, kommunikativ madaniyat sharoitidagi uzluksizlikning ilmiy asoslari tahlil qilingan.

Vorisiylik jarayonida milliy va xorijiy tajriba o'zaro boyituvchi va bir-birini to'ldiruvchi omil sifatida ishtirok etadi. Milliy qadriyatlar o'ziga xoslikni saqlashda muhim bo'lsa, xorijiy tajriba esa yangi imkoniyatlar va zamonaviy yechimlarni taqdim etadi. Milliy tajribaning vorisiylikdagi roli tarixiy jarayon sifatida doimiy rivojlanish va yangilanishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonning asosiy mexanizmlaridan biri bilimlarni uzatishning turli shakllaridir. Oila, ta'lim tizimi, san'at va adabiyot kabi ijtimoiy institutlar orqali milliy tajriba kelgusi avlodlarga yetkaziladi.

Milliy tajriba va vorisiylik jarayonida milliy madaniyatning global madaniyat bilan integratsiyalashuvi alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolish bilan birga, global jarayonlardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan, mahalliy san'at shakllarining xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilishi; milliy madaniyat asosida yaratilgan texnologiyalarning eksport qilinishi milliy tajribaning jahon miqyosidagi mavqeini oshiradi. Ammo bunday integratsiyalashuv jarayonida milliy o'zlikni yo'qotmaslik va xorijiy tajribalarni milliy xususiyatlarga moslashtirish muhimdir. Shu nuqtai nazardan, milliy tajriba nafaqat milliy identifikatsiyani saqlash, balki uni global miqyosda mustahkamlash uchun ham xizmat qiladi.

Insoniyat tarixida turli madaniyatlarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi va ta'siri jamiyatlarning intellektual, iqtisodiy hamda madaniy jihatdan boyishiga sabab bo'lib kelgan. Xorijiy tajribalar nafaqat texnologik innovatsiyalarni, balki gumanistik qadriyatlar va axloqiy-me'yoriy tajribalarni ham o'z ichiga oladi.

Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar xorijiy tajribalarni qabul qilishning asosiy mezonlaridan biridir. Texnologik rivojlanish taraqqiyotning tayanchi bo'lib, bu borada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yaponiyaning g'arb texnologiyalarini milliy qadriyatlar bilan

uyg'unlashtirish tajribasi bunga yorqin misoldir. Ushbu mamlakatda milliy urf-odatlarni saqlagan holda texnologik modernizatsiya amalga oshirilib, iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga erishildi. Bu jarayon milliy madaniyat va texnologiya o'rtasidagi dialektik birlikni namoyon etadi. Xorijiy texnologiyalarni qabul qilish va moslashtirish orqali jamiyatning raqobatbardoshligi oshadi. Iqtisodiy resurslar samaradorlik bilan foydalaniladi.

Xitoyda vorisiylik jamiyat tuzilishining negizi sifatida qaralgan. Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, inson hayoti oilaviy mas'uliyatdan boshlanadi. Bu mas'uliyat jamiyatdagi boshqa munosabatlarning ham asosini tashkil etadi. Ota-bobolarning o'g'itlarini avlodlarga yetkazish Xitoy jamiyatining ijtimoiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu tamoyillar orqali jamiyatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligi ham ta'minlangan. Xitoy falsafasida ota-bobolar ruhiga sig'inish, ularga ehtirom ko'rsatish va ularning merosini avlodlarga yetkazish g'oyasi qadimdan asosiy o'rin egallagan. Ushbu falsafa, ayniqsa, jamiyatning barcha qatlamlari uchun birlashtiruvchi omil sifatida xizmat qilgan¹. Xitoy madaniyatida vorisiylik nafaqat oilaviy, balki davlat miqyosida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

An'anaviy Koreyada vorisiylik masalasi genealogiya tizimi, ya'ni chokpo orqali amalga oshirilgan. Chokpo tizimi oilaning kelib chiqishini, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni va oilaviy qadriyatlarning uzluksizligini ta'minlagan. Ushbu tizim nafaqat oilaviy tarixni yozib borishni, balki jamiyatda har bir avlodning o'rnini aniqlashni ham osonlashtirgan. Bu orqali ijtimoiy tartib va ma'naviy barqarorlikni saqlashga erishilgan. Koreya madaniyatida shamanizm va konfutsiychilik qadriyatlari vorisiylikning ma'naviy asosi sifatida namoyon bo'lgan. Shamanizmning tabiat va ruhlar bilan bog'liq an'analari jamiyatda ruhiy uyg'unlikni ta'minlagan. Konfutsiychilik axloqiy normalarni belgilash orqali oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan.

Milliy va xorijiy tajribalarni birlashtirish, bir qarashda qarama-qarshi bo'lib tuyuladigan elementlarni uyg'un holda saqlash, faqat vorisiylik tamoyiliga emas, balki yaratish va yangilikni kashf qilish qobiliyatiga ham asoslanadi. Bu jarayon tarixiy tajriba, madaniy qadriyatlar va zamonaviy texnologik yutuqlar uyg'unlashuvidan iborat.

Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish innovatsion yondashuvning muhim jihatlaridan biridir. Milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolish bilan birga, global madaniyat talablariga moslashish orqali madaniy uyg'unlikka erishiladi. Bu jarayonda innovatsiyalar milliy an'analarni yangi shaklda talqin qilishga imkon beradi. Misol uchun, milliy san'at turlari raqamli texnologiyalar yordamida ommalashtirilishi va xalqaro miqyosda tanilishi mumkin. Bunday uyg'unlik milliy qadriyatlarni global madaniyatning bir qismi sifatida namoyon etish imkonini beradi.

Kreativ fikrlash ham innovatsion yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi. Jamiyatdagi ijodkorlik yangi g'oyalar va kashfiyotlarni amalga oshirish uchun muhim manba hisoblanadi. Ekspressiv, kreativ fikrlash bizning taxminlarimizga

¹ M.H. Li; Application of Traditional Chinese Cultural Spirits in Modern Indoor Design // Research of Design Art; Issue 03, 2013 (in Chinese)

qarshi chiqishga, o‘zimiz va istiqbolimiz haqida yangi narsalarni kashf etishga, aqliy jihatdan o‘tkirroq bo‘lishga va hatto yanada optimistik bo‘lishga yordam beradi. Kreativ fikrlash orqali avlodlar o‘rtasidagi bilim va tajriba almashinuvi yanada samarali bo‘ladi. “Har bir inson kreativ imkoniyatlarga ega bo‘lib, ularni o‘stirish talab etiladi”¹. Innovatsiyalar avlodlar o‘rtasidagi tajriba almashinuvi jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Bu jarayonda yangi bilimlar yaratilib, jamiyatning ijtimoiy hayotiga moslashadi. Shuningdek, kreativ yondashuvlar orqali madaniy va ma‘naviy qadriyatlar yangi avlodlar tomonidan rivojlantiriladi. Yangi g‘oyalar va kreativ yondashuvlar vorisiylik jarayonini zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

“Raqamli tarix” nazariyasining ham amalda qo‘llanishi vorisiylikning innovatsion ko‘rinishiga misol bo‘ladi. Raqamli tarix insoniyatning tarixiy bilimlarini yaratish, saqlash va tarqatish jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiyalashni ifoda etadi. Bu tushuncha faqat texnologik yutuqlarni emas, balki tarixiy tafakkur va bilimning yangi falsafiy asoslarini ham o‘z ichiga oladi. Raqamli tarixning falsafiy mohiyati avvalo vaqt va makon konsepsiyasining qayta talqinida namoyon bo‘ladi. U tarixiy jarayonlarni chuqurroq va ko‘proq konseptual tahlil qilishga yo‘naltiradi.

Raqamli tarixda vaqt endi faqat xronologik o‘lchov emas, balki ko‘p qatlamli va interaktiv hodisa sifatida ko‘riladi. Turli davrlardagi voqealarni zamonaviy vositalar yordamida vizualizatsiya qilish orqali ular o‘rtasidagi uzviy aloqalar chuqurroq anglanadi. Ushbu innovatsion yondashuv insoniyat tarixini faqat bir tomonlama o‘rganish emas, balki o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatni o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu, ayniqsa, jamiyatning global tarixiy tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishda muhimdir.

Raqamli tarix falsafiy jihatdan tarixiy bilishning subyektiv va obyektiv jihatlarini yangi darajaga olib chiqadi. Ma‘lumotlarning raqamli formatda mavjudligi ular bilan o‘zaro ta‘sirni sezilarli darajada o‘zgartiradi. Tarixiy ma‘lumotlarni tahlil qilishda sun‘iy intellekt algoritmlarining qo‘llanilishi obyektivlikni oshirish imkonini bersa-da, bu yangi texnologiyalarning o‘ziga xos chegaralari va xavflarini ham keltirib chiqaradi. Shu jihatdan, raqamli tarix faqat yangi bilimlar yaratish vositasi emas, balki bilimning falsafiy chegaralarini ham kengaytiradi.

Zamonaviy jamiyatda madaniyat – insoniyatning boy merosi bo‘lib, u nafaqat tarixiy tajriba va qadriyatlarni, balki yangi innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ham o‘z ichiga oladi. An‘anaviy yondashuvlar asrlar davomida shakllangan urf-odat, til, san‘at va axloqiy qadriyatlarni ifodalaydi. Innovatsion yondashuvlar esa bugungi kunda tez rivojlanayotgan ilmiy-texnikaviy yutuqlar, zamonaviy kommunikatsiya vositalari va yangi ijtimoiy tajribalarni aks ettiradi. Ushbu ikkita yondoshuvning o‘zaro sintezi, ya‘ni ularni birlashtirib, yangi muloqot shakllarini yaratish jarayoni, madaniyatni davomiy va zamonaviy holatda saqlab qolishning kaliti sifatida namoyon bo‘ladi.

¹ Shermuxammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. –Toshkent: “Aloqachi”, 2008. 188-bet.

Madaniyat insoniyatning ajralmas qismi bo'lib, u o'tgan asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy qadriyatlar va yangi zamonaviy yondoshuvlarning uyg'unlashuvi natijasida yanada boyib boradi. Tarixiy tajriba, qadimgi urf-odatlar va madaniy ifodalar – bularning barchasi insoniyatning o'ziga xosligini, tarixiy uzluksizlikni ifodalaydi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar zamonning talablariga javob beruvchi, yangi texnologiyalar va ijodiy yondoshuvlar orqali madaniyatni yangilashga xizmat qiladi. Bu jarayon faqat ikki qarama-qarshi yo'nalishni birlashtirish emas, balki ular o'rtasida kreativ sintezni, ya'ni yangicha madaniy interpretatsiyani yuzaga keltiradi.

Bu sintez jarayoni, o'z navbatida, an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy hayot sharoitiga moslashtirishga yordam beradi. Masalan, klassik san'at asarlari va qadimiy adabiyot namunalarining yangi texnologiyalar yordamida qayta talqin qilish mumkin. Uning raqamli platformalarda namoyish etilishi va keng auditoriyaga yetkazilishi – bularning barchasi madaniy vorislikning zamonaviy talqinidir. Shu tarzda, sintez jarayoni nafaqat eski va yangi elementlarni birlashtirish, balki ularning o'zaro ta'sirini kuchaytirib, madaniyatning jonliligi va moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Demak an'anaviy yondashuv kommunikativ madaniyatda vorisiylikning uzluksizligini ta'minlovchi asosiy mexanizmdir. U milliy tarix, madaniy an'analar va urf-odatlariga asoslanib, avlodlar o'rtasidagi muloqotni davom ettiradi. An'anaviy yondashuv o'zining qat'iy qadriyatlari va normativlari bilan o'zgarishlarga nisbatan barqarorlikni saqlab qoladi. Shu bilan birga, u tarixiy tajriba va madaniy merosni yangicha talqin qilish imkoniyatlarini ham yaratadi. An'anaviy mexanizmlar doimiy ravishda avlodlararo muloqotni ta'minlab, madaniy identitetni mustahkamlaydi. Natijada, bu yondashuv kommunikativ madaniyatda vorisiylikning an'anaviy asoslarini zamonaviy kontekstga moslashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning **“Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida katta avlod vakillari ma'naviyatining yoshlar dunyoqarashiga transformatsiyalashuvi”** deb nomlangan uchinchi bobida jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida katta avlod vakillari ma'naviyatining yoshlar dunyoqarashiga bo'lgan transformatsiyasi hamda katta avlod vakillarining inson kapitalini rivojlantirish orqali milliy taraqqiyotga qo'shadigan hissasi atroflicha tahlil qilingan.

Ajdod va avlod o'rtasidagi vorisiylik jarayoni dialektik birlik va qarama-qarshilikni o'z ichiga oladi. Dialektik yondashuvda ajdodlar tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar avlodlar tomonidan qayta baholanadi. Ba'zan esa ular bilan muvofiqlashtiriladi. Masalan, texnologik taraqqiyot natijasida avlodlarning dunyoqarashi o'zgaradi. Ammo ular ajdodlardan o'zlashtirilgan asosiy ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolishga harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan, avlod va ajdod o'rtasidagi munosabatlar o'tmish hamda kelajakni bog'lovchi uzluksiz jarayondir.

Falsafiy jihatdan qaraganda, avlod va ajdod tushunchalari nafaqat tarixiy, balki ekzistensial ahamiyatga ega. Insonning o'zligini anglash jarayoni ko'p jihatdan ajdodlar tomonidan shakllantirilgan merosni tushunish va qabul qilish bilan bog'liq. Ajdodlardan olingan ma'naviy boyliklar avlodlarga o'z hayotiy yo'nalishlarini aniqlashda yordam beradi. Shu bilan birga, har bir avlod ajdodlarning merosini faqat passiv qabul qilmaydi, balki uni boyitadi va rivojlantiradi.

Milliy darajada inson kapitalining rivojlanishi madaniy va tarixiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati va urf-odatlarini inson kapitalining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish inson kapitalining ma’naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga katta avlodning inson kapitaliga qo‘shgan hissasini to‘liq anglash uchun ularning hayotiy tajribasini chuqur tahlil qilish va undan saboq olish zarur. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda umumiy manfaatlarga asoslangan hamjihatlikni ta’minlaydi. Yuqoridagi yondashuv orqali katta avlod va inson kapitali tushunchalari birgalikda milliy taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu jarayonning uzluksizligini ta’minlash esa yosh va katta avlod o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamkorlikka bog‘liqdir.

Madaniy merosning uzatilishi jarayonida katta avlod rahnamoligi o‘ta muhimdir. Bu jarayon faqat moddiy boyliklarni yoki tarixiy faktlarni saqlash emas, balki xalqning ma’naviy va axloqiy qirralarini avlodlar o‘rtasida yetkazish jarayonidir. Madaniy meros insoniyat tarixida o‘ziga xos axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. “Madaniy meros – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ma’naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy hamda ma’naviy boyliklarni anglatuvchi tushuncha”¹. Madaniy meros nafaqat o‘tmish haqiqatini aks ettiradi, balki kelajak uchun yo‘nalishlarni belgilab beradi. Katta avlod o‘z tajribasini yosh avlodga yetkazib, ularni tarixiy xatolarni takrorlamaslikka undaydi. Jamiyatda kelajakka umid bilan qarashni rag‘batlantiradi.

Tarixiy tajriba va madaniy merosni saqlash jarayonida katta avlodning faoliyati vaqtning falsafiy mohiyatini anglash bilan bog‘liq. Har bir madaniyatda vaqt ikki yo‘nalishda talqin qilinadi: vaqt oqimi (uzluksizlik) va vaqtning bo‘linmasligi (insonning o‘z hayoti davomida qo‘shgan hissasi). Shu nuqtai nazardan, katta avlodning tajribasi vaqtning ikki yo‘nalishini birlashtiradi va madaniy merosni avlodlararo mustahkam bog‘lovchi kuch sifatida xizmat qiladi. Ularning tajribasi yosh avlod uchun ichki ma’naviy kompas rolini bajaradi. Jamiyatdagi maqsad va vazifalarni aniqlashga yordam beradi.

An’anaviy qadriyatlar va zamonaviylik o‘rtasidagi uyg‘unlik milliy taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir. Katta avlodning vazifasi esa bu ikki qarama-qarshi tamoyilni muvozanatlashtirishdan iboratdir. Ular yoshlarni tarixiy tajriba asosida yangi g‘oyalarni qabul qilishga va ular orqali jamiyatni rivojlantirishga o‘rgatadi. Har qanday taraqqiyot jarayoni avvalgi bosqichning madaniy va ma’naviy merosini o‘zida aks ettiradi. Katta avlod ushbu jarayonning barqarorligini ta’minlab, yoshlarga o‘tmishdan saboq olishni va kelajakni yangicha ko‘rish qobiliyatini shakllantirishda yordam beradi.

Milliy taraqqiyot jarayonida katta avlodning ahamiyati shundaki, ular yosh avlodni yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashishga tayyorlaydi. Ularning tajribasi zamonaviylik bilan o‘zaro bog‘liqlikni anglashni ham o‘z ichiga oladi. Katta avlod vakillari yoshlarni kelajakka tayyorlash davomida insonparvarlik

¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. –Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2023. 684-бет.

tuygʻusini kuchaytiradi. Bu tamoyillar esa jamiyatni maʼnaviy jihatdan yuksaltirish va milliy taraqqiyotning ijtimoiy negizlarini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Texnologik rivojlanish insoniyatning evolyutsiyasining ajralmas qismiga aylangan. Har bir yangi texnologik yutuq jamiyatda tub oʻzgarishlarni amalga oshiradi. Lekin bu oʻzgarishlar faqat insoniyat maqsadlari va qadriyatlari asosidagina samarali boʻlishi mumkin. Texnologik taraqqiyot katta avlod vakillari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Endilikda ular oʻz tajribalarini zamonaviy texnologiyalar orqali yosh avlodga samarali yetkaza oladi. Katta avlodning texnologiyalarga moslashish qobiliyati, ularning tajribalarini yanada oshirish imkonini beradi. Bu jarayon texnologiyalar va inson mohiyatining oʻzaro aloqasini aks ettiradi va ularning dialektik uygʻunligini koʻrsatadi.

Xullas avlodlararo vorisiylik doirasida keksa avlodning inson kapitalini rivojlantirishdagi rolini quyidagicha baholash mumkin:

Bilim va tajriba uzatish: Keksav avlod yosh avlodni oʻqitish, ularni murakkab hayotiy vaziyatlarda yoʻl-yoʻriq koʻrsatish orqali inson kapitalini shakllantiradi. Ularning professional faoliyatida toʻplangan bilim va koʻnikmalari yoshlar uchun bebaho manba hisoblanadi.

Maʼnaviy tarbiya va qadriyatlarni shakllantirish: Inson kapitali faqat texnik bilimlardan iborat emas, balki maʼnaviy yetuklik va axloqiy tamoyillarni ham oʻz ichiga oladi. Keksav avlod jamiyatdagi ijtimoiy meʼyor va qadriyatlarni mustahkamlash orqali inson kapitalini boyitadi.

Ijtimoiy integratsiyani taʼminlash: Keksav avlod vakillari yoshlarni madaniy va milliy merosni qadrlashga oʻrgatish orqali jamiyatdagi birlik va barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu jarayon jamiyatning maʼnaviy va ijtimoiy rivojlanishini ragʻbatlantiradi.

Bugungi postindustrial davrda xalqimizdagi avlodlararo munosabatlarida bir qator oʻzgarishlar sodir boʻlmoqda. Baʼzi munosabat shakllari transformatsiyaga uchrab yangi mazmun kasb etayotgan boʻlsa, baʼzi odatlar butunlay yoʻqolib ketmoqda. Yoshlar oʻrtasida shunday muloqot shakllari paydo boʻlmoqdaki, ular na milliy-diniy qadriyatlarimizga mos keladi, na ijobiy mohiyat aks etadi. XXI asrga kelib oldimizda turgan dolzarb muammo kattalar va yoshlar oʻrtasidagi munosabatlar transformatsiyasining sabab va oqibatlarini aniqlash, tahlil qilish, mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazishdan iborat.

Vaqt oʻtgani sayin har bir xalq madaniyati oʻzgarib zamonga moslashib boradi. Bu oʻzgarishlar aksariyat hollarda ijobiylik kasb etadi. Insoniyat dunyoqarashiga mos holatda eskirgan baʼzi qarashlar oʻz oʻrnini yangilariga boʻshatib, transformatsiyalashib boradi. Lekin milliylikni oʻzida mujassamlashtirgan qadriyatlar oʻrniga biz uchun yot boʻlgan, millatni oʻzligidan ayiradigan odatlarning kirib kelishi har bir millatparvar insonni tashvishga soladi. Yosh avlod maʼnaviyati innovatsiyalarga ochiqlik va mustaqil fikrlash bilan xarakterlanadi. Ushbu avlod texnologiyalarni faol oʻzlashtirishi va yangi bilimlarni qidirishi bilan ajralib turadi. Biroq yoshlar oʻrtasida maʼnaviy qadriyatlarining susayishi, isteʼmolchilik kayfiyatiga asoslangan yondashuvlar ham kuzatiladi.

Texnologik rivojlanish ham madaniy transformatsiyaga kuchli ta'sir o'tkazadi. Informatsion texnologiyalarning kengayishi natijasida axborot almashinuvi tezlashdi. Natijada turli millatlar o'rtasidagi madaniy masofa qisqarmoqda. Yosh avlod raqamli kommunikatsiya vositalari orqali global madaniyatga tez moslashadi. Shu bilan birga, an'anaviy madaniy shakllar yangi texnologiyalar orqali ifodalana boshlaydi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda milliy san'at va qadriyatlarning zamonaviy talqini paydo bo'lishi bunga yaqqol misoldir.

Biroq, madaniy transformatsiyaning ikki tomonlama ta'siri mavjud. Bir tomondan, u jamiyatning innovatsion taraqqiyotiga yo'l ochib, millatlararo muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi. Ikkinchi tomondan esa, an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishi va ma'naviy merosning zaiflashish xavfi paydo bo'ladi. Bu esa katta va yosh avlod o'rtasidagi ma'naviy tafovutlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunday ekan madaniy transformatsiyani milliy va global qadriyatlarning o'zaro to'qnashuvi sintez jarayonini keltirib chiqaradi. Bu sintez natijasida jamiyat yangi madaniy shakllarni yaratib, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy merosni moslashuvchan holatda saqlab qolishi mumkin. Shu sababli, madaniy transformatsiya jarayonida milliy o'zlik va innovatsion taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatni topish muhim ahamiyatga ega.

Katta avlod, odatda, agrar yoki an'anaviy iqtisodiyotga asoslangan jamiyat sharoitida shakllangani sababli, jamoaviylik, o'zaro yordam va meros sifatida qabul qilingan qadriyatlarga sodiq qoladi. Qishloq hayotida shakllangan bu avlodning dunyoqarashi ko'proq an'anaviy ijtimoiy tuzilishga asoslangan bo'lib, oilaviy qadriyatlar va mehnatsevarlikni asosiy tamoyillar sifatida ko'radi. Bunday avlod vakillari ijtimoiy barqarorlikni qadrlaydi, urf-odatlariga hurmat bilan yondashadi va hayotiy tajribaning ajdodlardan-avlodlarga uzatilishini ma'naviyatning ajralmas qismi sifatida ko'radi. "Farzandlar avlodlararo munosabatlarning davomchilari sifatida oilaviy an'analarni kelgusi avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Farzandlarning ko'pligi avlodlararo munosabatlarning barqaror davom etishini, kengayishini milliy an'analar bilan uyg'unlashishini belgilaydi. Ularning bir-birlari bilan aloqalari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashuvi, bir-biriga integratsiyalashuvi omilidir"¹.

Ammo urbanizatsiya jarayonida shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashi ko'proq individualistik tamoyillarga asoslanadi. Shaharlashuv natijasida yosh avlod avvalgi avlodlarga xos bo'lgan qishloq hayotidan ajralib, yangi iqtisodiy va texnologik imkoniyatlarga duch keladi. Bunday sharoitda tanlov erkinligi va innovatsion yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot va bilimga asoslangan jamiyat yoshlarga yangi kasbiy imkoniyatlar yaratib, ularning mustaqillik sari intilishlarini kuchaytiradi. Biroq bu jarayon ba'zan katta avlodning sobit qadriyatlari bilan ziddiyatni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki an'anaviy jamiyat tuzilmalari va zamonaviy shaxsiy yutuqlar paradigmasi bir-biridan keskin farq qiladi.

¹ Зоҳиров Р.Т. Оилада авлодлараро муносабатларни мустаҳкамлаш: анъанавийлик ва замонавийлик: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. –Тошкент: ҚарДУ, 2020. -13 б.

Aynan urbanizatsiya, globallashuv va iqtisodiy o'zgarishlar avlodlar o'rtasidagi vorisiylikka salbiy ta'sir qiladi. Bu esa bir qator muammolarga sabab bo'lmoqda:

Individualizmning kuchayishi va egoizmning avj olishi zamonaviy yoshlarning dunyoqarashida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Globallashuv jarayonida shaxsiy manfaatlarga ortiqcha e'tibor qaratilishi, yoshlar orasida jamoaviy qadriyatlarning zaiflashuvi va milliy birdamlikning kamayishiga olib kelmoqda. An'anaviy oila, mahalla va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'zining tarixiy ta'sirini yo'qotib, jamoaviylikka asoslangan munosabatlar tobora zaiflashmoqda.

Begonalashuvning oqibatlarini shaxsiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zini "begona" his qilgani sababli, shaxsiy o'zligini yo'qotishi, o'z qadriyatlari va ichki dunyosini anglashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu holat ko'pincha shaxsiy qoniqarsizlik, o'zlikni anglash jarayonidagi buzilishi va ruhiy salomatlik muammolari bilan ifodalanadi.

Shu bilan birga tarixdan ma'lum bo'lgan vandalizm ham vorisiylikka o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Vandalizmning ijtimoiy oqibatlarini keng qamrovli bo'lib, u shaxslararo ishonch, ijtimoiy birlik va madaniy identitetni zaiflashtiradi. Shaxslarning, ayniqsa, o'zini jamiyat tomonidan etarlicha qadrlanmagan yoki adolatsiz tizimda yashayotganlarida, vandalizm ko'pincha ijtimoiy norozilik va dissensning tashqi ifodasi sifatida yuzaga keladi. Bunday holat shaxslar orasida o'zlikni anglash va o'z identitetini himoya qilish istagini qondirishdan ko'ra, ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlikka olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, vandalizm madaniy merosni, tarixiy binolar, san'at asarlari va jamoat joylarini shikastlash orqali, kelajak avlodlarga uzatilayotgan umumiy qadriyatlarning yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Dissertatsiyaning **"Globallashuv sharoitida vorisiylikka an'anaviy va innovatsion yondashuvning zarurati hamda muammolari"** deb nomlangan to'rtinchi bobida global axborot va iqtisodiy integratsiya sharoitida tarixiy merosni saqlab qolish zarurati o'rganilgan. Shuningdek, zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida vorisiylik jarayonining rivojlanishidagi zarurat va yuzaga kelayotgan muammolar ilmiy-falsafiy tahlil qilingan. Bob davomida olib borilgan tahliliy izlanishlar natijasida, milliy an'analarni asrash; kreativ tafakkurni shakllantirish; yangi O'zbekistonda vorisiylik an'analari bo'lgan ijtimoiy munosabatning o'ziga xosligi aniqlangan.

Globallashuv davrida vorisiylik – milliy madaniyatni saqlashning asosiy mexanizmi. Agar bu vaqtda vorisiylik tamoyili zaiflashsa, madaniy identifikatsiya yo'qolib, xalqning tarixiy xotirasi susayishi mumkin. Vorisiylik faqat an'analarni takrorlash emas. U tarixiy ongni uzluksiz rivojlantirish jarayonidir. Har bir avlod oldingi tajribalarni o'ziga xos tarzda qayta talqin qiladi. Natijada, milliy identlik ham doimiy o'zgarish va moslashuv jarayonida bo'ladi. Globallashuv bu jarayonga yangi omillar qo'shadi. Ba'zan esa ularning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Mazkur tahlillardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki globallashuv davri vorisiylik an'analari quyidagicha o'z salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin:

1. Globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining muqarrar bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu madaniy chegaralarni yo‘q qilib, umumjahon ahamiyatiga ega bo‘lgan urf-odatlar va turmush tarzini shakllantirishga intiladi. Ushbu jarayonda eng katta tahdid milliy o‘ziga xoslikning zaiflashishidir. G‘arb madaniyati va ommaviy madaniyatning ustun kelishi natijasida ko‘plab jamiyatlarda o‘z an’anaviy qadriyatlari va urf-odatlarini saqlab qolish masalasi dolzarb muammoga aylanmoqda. “Ommaviy madaniyat ixtisoslashgan (masalan, professional tayyorgarlik ko‘rgan) onga emas, balki oddiy, reflekslanmagan, anglangan narsa notanqidiy o‘zlashtirilgan sxemalarga muvofiq shaklan o‘zgaradigan onga murojaat etishi bilan elitar madaniyatdan farq qiladi. Ommaviy madaniyat asarlarini ularning estetik qimmati nuqtai-nazaridan, an’anaviy san’at singari, durdona asarlarga emas, balki o‘rtamiyona (muhimi, pul keltiradigan) asarlarga yo‘naltirilgan madaniyat sifatida baholash odat tusiga kirgan”¹.

2. Globallashuv jarayonida madaniy assimilyatsiya eng katta tahdidlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Assimilyatsiya – bu kuchli madaniyatlarning zaifroq yoki kichik madaniyatlarni o‘z ichiga singdirishi, natijada mahalliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analar asta-sekin yo‘qolib borishidir. Ushbu jarayon insoniyat tarixida ko‘p bora kuzatilgan bo‘lib, ayniqsa, madaniy imperializm va global standartizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq holda jadallashmoqda.

Assimilyatsiyaning eng xavfli jihati shundaki, u sekin va deyarli sezilmas tarzda amalga oshadi. Katta madaniyatlar iqtisodiy, siyosiy va texnologik ustunligi orqali kichik madaniyatlarni o‘z ta’sir doirasiga tortadi. Masalan, ommaviy axborot vositalari va global san’at industriyasi orqali yosh avlod ongiga begona qadriyatlar singdiriladi. Natijada, mahalliy madaniyat nafaqat o‘zining tashqi ko‘rinishini, balki ichki mohiyatini ham yo‘qotib boradi. Bu jarayon fransuz faylasufi Jan Bodriyar nazariyalarida “simulyakrlashtirish” deb atalgan fenomen bilan izohlanishi mumkin. Uning fikricha, ommaviy madaniyat real an’analar va qadriyatlarni almashtirib, sun’iy, tijorlashtirilgan madaniyatni yaratadi. Shu sababli, mahalliy urf-odatlar o‘zining tabiiy rivojlanishidan ajralib, standartlashtirilgan global modelga moslashtiriladi.

3. Globallashuv jarayonida tillarning yo‘qolib borish xavfi oshmoqda. Yuqori madaniy va iqtisodiy kuchga ega bo‘lgan xalqlarning tili global muloqot vositasi sifatida ustunlikka ega bo‘lmoqda. Bunda kichik va hatto ayrim milliy tillar asta-sekin iste’moldan chiqib bormoqda. “Mutaxassislarining so‘zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so‘zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir”². Bugungi kunda ingliz, xitoy va ispan tillari xalqaro muloqotning asosiy vositalariga aylangan.

¹ Ғойибназаров Ш. Оммавий Маданият. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012. 12-бет.


² Umarova Y.T. Til - inson qalbining xazinasi // Yosh Olimlar. 2023. 1(8), 130–131.

Bunday sharoitda kichik tillarning yo‘qolish xavfi ortib bormoqda. Biroq, tahdid faqat kichik tillarga emas, balki yirik milliy tillarga ham taalluqlidir. Chunki global tillarning ta’siri milliy tillarga xorijiy so‘zlar oqimi orqali singib borib, ularning asl shakli buzilishiga olib kelmoqda. Natijada, milliy tillar o‘zining an’anaviy lug‘at boyligini yo‘qotib, xorijiy standartlarga moslashib boradi. Bu jarayon madaniy assimilyatsiyaning xavfli ko‘rinishlaridan biridir.

4. Globallashuvning kuchayishi bilan jamiyatlarning ijtimoiy ongi axborot oqimlarining bosimi ostida tobora o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari – internet, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar global miqyosda yagona informatsion makonni shakllantirayotgan bir paytda, milliy mafkura va tarixiy xotiraning o‘z o‘rnida qolishi tobora qiyinlashmoqda. Global narrativlar mahalliy tarixiy haqiqatlarni siqib chiqarishi yoki ularning mazmunini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bu jarayon millatning o‘ziga xos tarixiy xotirasini zaiflashtiradi hamda milliy o‘zlikni yo‘qotish xavfini tug‘diradi.

Tadqiqot davomida Respublikamiz fuqarolari, asosan, **18-51** yosh oralig‘idagi ishtirokchilar o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma ishtirokchilarining soni **794** nafarni tashkil etadi. Ularning orasida turli ijtimoiy guruhlar vakillari mavjud. Shuningdek, so‘rovnoma yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi va bu faoliyat orqali ular qanday qadriyatlarni qabul qilishlari hamda ularga qanday yondashuvlarni shakllantirayotganliklarini aniqlashga qaratilgan.

Sotsiologik so‘rovnomadagi “O‘zbek oilalarida vorisiylik an‘analari mavjudmi?”, deb berilgan savolga respondentlarning **66%**i o‘z oilalarida vorisiylikning shakllanganini va qadriyatlar o‘tkazilishi borasida qoniqarli holatni bildirgan.



Sotsiologik so‘rovnoma tahlili natijalariga ko‘ra, bu jarayonning asosiy elementlari oila, mahalla va keksalar bo‘lib, jamiyatning ichki tuzilmasi hamda avlodlar o‘rtasidagi aloqalar asosida shakllanadi. **28%** respondentlar oilasida yetarli darajada vorisiylik jarayonining shakllanmaganligini, **6%** esa bunday jarayonlarning yo‘qligini ta’kidlashgan. Bu ko‘rsatkichlar jamiyatda vorisiylikning shakllanishi va avlodlar o‘rtasidagi ijtimoiy, ma’naviy va madaniy bilimlarning uzatilishi darajasini aks ettiradi.

Bugungi kunda, raqamli texnologiyalar va media vositalari orqali avlodlar o'rtasida ma'naviy va madaniy bilimlarni uzatishning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. So'rovmada keltirilgan "Sizningcha, globallasuv va texnologiyaning vorisiylikka ta'siri qanday?" degan savolga so'rovda qatnashganlarning ko'pchiligi, "globallasuv va texnologiyalarning vorisiylikda an'anaviy qadriyatlar ahamiyatini saqlab qolishga ko'rsatayotgan ta'siri" yuqori ekanligini ta'kidlashgan.




59% respondentlar globallasuv va rivojlanayotgan texnologiyalarning ijtimoiy tuzilma va qadriyatlarning shakllanishiga salbiy ta'siri yuqori deb baholagan. Ushbu fikr kelajak avlodlar uchun an'anaviy qadriyatlar ahamiyatini saqlab qolishda qiyinchilik tug'dirishini ko'rsatadi. Biroq, **37%** respondentlar texnologik yutuqlar yordamida an'analar va qadriyatlarni saqlab qolishda imkoniyatlarni ko'rishgan. Bu an'anaviy qadriyatlarni asrash va avlodlarga yetkazishda Internet va innovatsion texnologiya qulayliklaridan unumli foydalanish mumkinligini asoslaydi. Respondentlarning **4%**i ta'siri yo'q, deya fikr bildirishgan.

So'rovda qatnashganlarning **41,2%**i global texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar orqali vorisiylik jarayonini tezlashtirish mumkinligini ko'rsatganlar. respondentlarning **31,5%** internet tarmoqlari va raqamli resurslar yordamida qadriyatlarni saqlashni osonlashtirishni qo'llab-quvvatlashadi. Bu, texnologiyalarning vorisiylik jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, respondentlarning **15,2%**i texnologiyalarning jamiyatdagi qadriyatlarni shakllantirishda qat'iy usul sifatida emas, balki yordamchi vosita sifatida ishlatilishiga e'tibor qaratganlar. Ishtirokchilarning **12,1%**i texnologiyalar qadriyatlarni o'rgatishda yordam beradi, lekin an'anaviy shakllar va o'zaro muloqot ham muhimdir.

Global texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar vorisiylik jarayonini tezlashtirishga ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaysizmi?



Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, yoshlarning jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanayotgan qadriyatlar va milliy qadriyatlarni saqlashda oila va jamiyatning o'rni haqida aniq xulosa qilish mumkin. Jamiyatni rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlarni axloqiy va madaniy qadriyatlarni targ'ib qilishda samarali vosita sifatida qo'llash muhimdir. Shuningdek, oila va mahalla kabi ijtimoiy institutlarning roli ayniqsa ahamiyatlidir, chunki ular yoshlar uchun qadriyatlarni shakllantirishda o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Globalashuv sharoitida vorisiylikka an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini falsafiy tahlil qilish asosida quyidagi nazariy xulosalar ishlab chiqildi:

1. Vorisiylik jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun fundamental ahamiyatga ega. U ijtimoiy tizimlar va institutlarni birlashtiruvchi hamda avlodlar o'rtasida aloqa o'rnatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Innovatsiyalar va global ta'sirlar davrida vorisiylikni saqlash va rivojlantirish orqali jamiyatning barqarorligi ta'minlanadi. Shu sababli, vorisiylikning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati va uning jamiyat rivojlanishidagi o'rni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashishi lozim.

2. Vorisiylik an'alarining obyektiv zarurati ijtimoiy hayotning barcha jihatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. U madaniy va axloqiy qadriyatlarni saqlash, avlodlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash uchun asosiy vositadir. Bu jarayonning falsafiy mohiyati insonning o'zidan keyin qoldiradigan merosga bo'lgan intilishi bilan bog'liq. Bu intilish jamiyatning madaniy va ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

3. Avlodlararo vorisiylikni tadqiq qilishda har bir metodologik yondashuvning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Tarixiy yondashuv vorisiylikning ildizlarini aniqlashga yordam beradi; ijtimoiy-falsafiy yondashuv uning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi; psixologik yondashuv esa shaxsga ta'sirini ochib beradi. Komparativ yondashuv turli madaniyatlar tajribasini qiyoslab, umumiy va o'ziga xos jihatlarni ajratib ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlarni birgalikda qo'llash vorisiylik jarayonini yanada chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

4. Vorisiylik jarayonida milliy va xorijiy tajribalar bir-birini to'ldiruvchi va boyituvchi rol o'ynaydi. Milliy tajriba o'ziga xoslikni saqlash va jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhim bo'lsa, xorijiy tajriba innovatsiyalar va zamonaviy rivojlanishni ta'minlaydi. Ularning uyg'unlashuvi milliy madaniyatni global miqyosda targ'ib qilish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lish uchun zarurdir.

5. Innovatsion yondashuvlar va vorisiylik bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular bir-birini to'ldiruvchi elementlardir. Zamonaviy texnologiyalar va globalashuv jarayonlari vorisiylikni yangicha shakllarda rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ammo bu jarayonda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni yangi avlodga uzatishda mas'uliyatli yondashuv zarur. Shu sababli, vorisiylik va innovatsiya integratsiyasi barqaror rivojlanish uchun asosiy omil bo'lib qoladi.

6. Kommunikativ madaniyat doirasida an'anaviy yondashuv qadriyatlarning uzluksiz merosini ifodalaydi. Innovatsion yondashuv esa ularni zamonaviy hayotga moslashtirish jarayonini aks ettiradi. Ushbu dialektika – qarama-qarshilik va o'zaro ta'sir natijasida, madaniyatning boy tarixiy ildizlari bilan yangi ijodiy imkoniyatlar orasidagi uyg'unlikni yaratadi. An'anaviy va innovatsion yondashuvlarning uyg'unligi madaniyatning o'zligini saqlab qolish va yangilanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon, har ikkala yondashuvning o'zaro ta'siri orqali vorisiylikning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

7. An'anaviy vorisiylik qadriyatlari insoniyat tarixida qadimiy ildizlariga ega. Innovatsion yondashuv esa global axborot va texnologik yangiliklar asosida ularni

qayta talqin qiladi. Ushbu jarayonda, o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi dialektik bog'liqlik madaniyatning rivojlanishiga yangi nafas bag'ishlaydi. Innovatsion yondashuv qadriyatlarining zamonaviy kontekstda o'z aksini topishini ta'minlasi, an'anaviy yondashuv ularning doimiyligini kafolatlaydi. Bu ikki tomonlama yondashuv vorisiylikning davomiyligini va o'zgaruvchan madaniyat muhitida yangilanishini ta'minlaydi.

8. Katta avlod vakillari inson kapitalining boy tajribasi va axloqiy qadriyatlari orqali milliy taraqqiyotga muhim hissa qo'shadi. Ularning yuksak ma'naviy qadriyatlarini yosh avlodga ilhom manbai bo'lib, jamiyatda madaniy merosning davomiyligini ta'minlaydi. Bu tajriba, shuningdek, inson kapitalining ruhiy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Katta avlod vakillarining boy tajribasi inson kapitalining ma'naviy va intellektual boyligini shakllantiradi.

9. Jamiyat taraqqiyotida katta va yosh avlod ma'naviyatining transformatsiyasi obyektiv ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar hamda subyektiv shaxsiy tajribalar natijasida yuzaga keladi. Obyektiv omillar, texnologik yangiliklar va global munosabatlar madaniyatning yangilanishiga turtki bo'ladi. Subyektiv jihatdan esa, har bir insonning shaxsiy dunyoqarashi va ruhiy ehtiyojlari bu jarayonga o'z ta'sirini qo'shadi. Natijada, ma'naviy transformatsiya avlodlar o'rtasida murakkab dialektik munosabatlarni shakllantiradi. Bu jarayon jamiyatda yangicha qadriyatlarni yaratilishda muhim o'rin tutadi.

10. Yoshlar ma'naviy dunyoqarashidagi o'zgarishlar ba'zan an'anaviy vorisiylik elementlarini susaytirishi mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari va global madaniyat ta'siri yoshlar orasida eski qadriyatlarni unutilishiga olib keladi. Bu holat, vorisiylikka asoslangan an'anaviy me'yorlar va urf-odatlarining salbiy yo'nalishda o'zgarishiga sabab bo'ladi. Natijada, yosh avlod orasida tarixiy merosga hurmatning kamayishi kuzatiladi. Biroq, ushbu salbiy tendensiyalar innovatsion ta'lim va madaniy dialog orqali bartaraf etilishi mumkin.

11. Globallashtirish sharoitida mahalliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlar global ta'sir ostida o'z mohiyatini yo'qotish xavfi bilan yuzlashmoqda. Shuning uchun, vorisiylik an'analarini asrab-avayish, madaniy merosni saqlab qolish va yosh avlodga etkazish dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayonda, milliy qadriyatlarni himoya qilish va ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish orqali, an'analar barqarorligini ta'minlash zarur. Natijada, madaniyatning o'ziga xosligi va identiteti global tendensiyalar ostida ham saqlanib qoladi. Shu tarzda, vorisiylik an'analarini saqlash milliy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik uchun muhim omilga aylanadi.

12. Vorisiylikka innovatsion yondashuv, an'anaviy qadriyatlarni yangi texnologik va ijtimoiy kontekstda qayta tiklash imkonini beradi. Bu jarayonda, kreativ tafakkur va innovatsion g'oyalar madaniy merosning boyligini zamonaviylashtirishga xizmat qiladi. Natijada, yosh avlod o'zining ijodiy salohiyatini oshirgan holda, vorisiylik an'analarini yangi davrga moslashtira oladi. Shu yo'l bilan, innovatsion yondashuv madaniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlab, jamiyatda kreativ tafakkurning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu tendensiya, kelajak avlodlar uchun yangi imkoniyatlar va ijodiy intellektual boylik manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi:

birinchidan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Madaniyat vazirligi va IT-mutaxassislar bilan hamkorlikda milliy merosni raqamlashtirish hamda mobil ilovalarini ishlab chiqib muzeylar uchun interaktiv dasturlar tayyorlash.

ikkinchidan, “Hunarmand” uyushmasi orqali yangi texnologiyalarni joriy qilib, “Made in Uzbekistan” brendi ostida milliy hunarmandchilik mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish;

uchinchidan, har bir mahallaning tarixi, qadriyatlari va ilg‘or tajribalarini raqamlashtirish hamda onlayn platformalar orqali mahallalararo madaniy, ilmiy tajribalar almashinuvlarini kuchaytirish;

to‘rtinchidan, barcha hududlarda milliy naqsh va arxitektura uslublaridan foydalanilgan holda zamonaviy binolar loyihalarini uyg‘unlashtirib, mahalliy ko‘rinishdagi uy-joy hamda ofislarni barpo etish bo‘yicha maxsus kontentlar yaratish;

beshinchidan, zamonaviy texnologiyalar asosida virtual ziyorat qilish imkoniyatini yaratib, elektron gid xizmatlari va aqlli sayohat ilovalarini ishlab chiqish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.01.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ИСРОИЛОВ БЕКТОШ ЭРКИНОВИЧ

**РОЛЬ ТРАДИЦИОННЫХ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К
ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

09.00.04 – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2025

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2020.3.DSc/Fal70.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме) и размещен на веб-странице Научного совета (ik.falsafa.nuuz.uz) и на Информационно образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

| | |
|-------------------------------|--|
| Научный руководитель: | Гайбуллаев Отабек Мухаммадиевич доктор философских наук, профессор |
| Официальные оппоненты: | Туйчиев Бердикул Туракулович доктор философских наук, профессор |
| | Кодиров Анвар Каххарович доктор философских наук, профессор |
| | Чориев Санжар Анварович доктор философских наук, профессор |
| Ведущая организация: | Ташкентский государственный экономический университет |

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в ____ часов на заседании Ученого совета DSc.03/30.12.2019.F.01.05 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 1000174, г. Ташкент, Университетская улица, дом 4 Дворец культуры Союза молодежи). Тел.: (+99871)227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; (+99871)246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № ____). Адрес: 100174, г. Ташкент, Университетская улица, дом 4. Административное здание Национального университета Узбекистана, 2 этаж, 4-й кабинет. Тел.: (+99871) 236-46-55, факс: (+99871) 246-02-04.

Автореферат диссертации разослан 23 август 2025 года.
(реестр протокола рассылки №17 от 23 август 2025 года)

И.Саифназаров
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук, профессор

Г.М.Шадиметова
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD), доцент

У.Г.Тилавов
Председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

Введение (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Глобальные изменения, происходящие в мире, усиливают серьёзные трансформации в культурных взаимоотношениях человечества. Эти процессы характеризуются тем, что наследие, объединяющее народы и сохраняющее их самобытность, сталкивается с новыми инновационными подходами. Нарушение баланса между традициями и инновациями порождает угрозу утраты национальных культур или их нивелирования до однообразия. Одновременно формируются нигилистические взгляды, при которых традиционные ценности рассматриваются как излишний консерватизм, а новшества – как абсолютный приоритет. В связи с этим, раскрытие сущности преемственности через призму традиционного и инновационного подходов, а также разработка механизмов их гармоничного сочетания остаются одной из актуальных задач современности.

В мировой науке регулярно проводятся теоретико-методологические и прикладные исследования, посвящённые преемственности как важному фактору обеспечения социальной стабильности. В частности, особое значение приобретают научные изыскания, направленные на сохранение традиционных ценностей и их гармонизацию с инновационными подходами, согласование историко-культурного наследия с современными тенденциями развития, трансформации социально-гуманитарных принципов на основе идеи преемственности, а также на выявление роли преемственности и новаций в поддержании нравственно-эстетического баланса в обществе. Наряду с этим, вследствие глобализации, наблюдаются существенные изменения в сущности традиционных ценностей, а стремление национальных культур к безграничной интеграции порождает своеобразные хаотические сдвиги в социальной среде. В связи с этим, стабилизация баланса между традиционным и инновационным подходами в рамках преемственности, а также исследование механизмов их влияния на общественное развитие становятся объективной необходимостью.

В нашей стране гармония традиционных ценностей и инновационного подхода рассматривается как один из важнейших факторов общественного прогресса и остаётся приоритетным направлением государственной политики. В частности, подчёркивается: «Прежде всего, мы не должны забывать, что каждый из нас несёт ответственность за воспитание молодёжи, оберегая её от различных угроз, таких как наркотики, религиозный экстремизм, миссионерство и прочие бедствия, которые проникают под видом “массовой культуры”». В этой работе мы опираемся на наши многовековые национальные традиции и богатое духовное наследие предков»¹. С этой точки зрения, насущной задачей остаётся сохранение национального культурного наследия наших предков на основе преемственности, адаптация его к инновационному

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 277.

развитию, а также выработка концептуальных механизмов, формирующих нравственно-эстетический облик общества.

Диссертация в определённой степени направлена на реализацию задач, обозначенных в нормативно-правовых актах Республики Узбекистан, в частности в Указе Президента от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указе от 18 февраля 2020 года №УП-5938 «О мерах по оздоровлению социально-духовной атмосферы в обществе, дальнейшей поддержке института махалли, а также выведению системы работы с семьёй и женщинами на новый уровень», Указе от 6 ноября 2020 года №УП-6108 «О мерах по развитию сферы образования, воспитания и науки в период нового этапа развития Узбекистана», а также в Постановлении Кабинета Министров от 28 ноября 2018 года №ПП-4038 «Об утверждении Концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан» и Постановлении от 26 марта 2021 года №ПП-5040 «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы», а также в других нормативно-правовых документах, определяющих стратегические ориентиры духовного, культурного и образовательного развития страны.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан – «Формирование и реализация системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹. В условиях глобализации ведущими научными центрами и высшими учебными заведениями мира проводятся широкомасштабные исследования, посвящённые роли традиционного и инновационного подходов к преемственности в развитии общества. В частности, такие исследования осуществлялись учёными Кембриджского университета (Великобритания), Стэнфордского университета (США), Гейдельбергского университета (Германия), Национального университета Сингапура (Сингапур), Киотского университета (Япония), МГУ им. Ломоносова и Санкт-Петербургского государственного университета (Россия), Назарбаев Университета (Казахстан), Стамбульского университета (Турция), а также учёными

¹ <https://www.library.upenn.edu/>; <https://www.usu.edu/>; <http://uu.diva-portal.org/smash/record.jsf?pid=diva2%3A378042&dswid=-9354>; <https://www.dissertations.se/dissertation/982b89d283/>; <https://www.univie.ac.at/>; <https://www.uibk.ac.at/de/>; <https://www.verlagdrkovac.de/978-3-8300-4446-8.htm>; (<https://viewer.rsl.ru/ru/rsl01003463119?page=2&rotate=0&theme=white>); <https://www.tsutmb.ru/>; <https://www.kubsu.ru/ru/science/dissertations/d-21210118/institut-braka-v-prave-islamskih-gosudarstv-istoriko-pravovoe>; (<https://core.ac.uk/download/pdf/197309394.pdf> в file:///C:/Users/User/Downloads/22_3-4-0039.pdf) https://www.unipage.net/ru/235/hiroshima_university; <https://www.kihasa.re.kr/hsr/assets/pdf/489/journal-26-2-95.pdf>, <https://www.kihasa.re.kr/publish/report/view?type=policy&seq=29292>, <http://www.mediwelfare.com/news/articleView.html?idxno=380>; <https://www.kaznpu.kz/kz/>.

Национального университета Узбекистана и Самаркандского государственного института иностранных языков.

В ходе глобализационных процессов были научно обоснованы следующие направления: влияние и гармоничное сочетание традиционной и инновационной преемственности как условие совершенствования механизмов передачи наследия предков молодому поколению (Кембриджский университет, Великобритания); методы сохранения культурного наследия и его трансформации посредством инноваций (Стэнфордский университет, США); проблемы восстановления культурной преемственности в Европе и её интеграции с современностью в условиях глобализации (Гейдельбергский университет, Германия); воздействие инновационных подходов на развитие традиционных ценностей и их роль в социальном прогрессе в странах Юго-Восточной Азии (Национальный университет Сингапура); разработка передовых теорий, касающихся согласования национальных ценностей с инновационным развитием (Киотский университет, Япония); социокультурный и философский анализ проблем преемственности, выявление правовых и социальных принципов сохранения культурного наследия в философском ракурсе (МГУ им. Ломоносова и Санкт-Петербургский государственный университет, Россия); обоснование роли преемственности в сфере образования и воспитания, а также разработка передовых методов воспитания молодёжи на основе традиционных и инновационных подходов (Назарбаев Университет, Казахстан); изучение влияния исторической и культурной преемственности на процессы интеграции в условиях глобализации (Стамбульский университет, Турция); проведение значимых исследований, посвящённых значению традиционного и инновационного подходов к преемственности в национальном развитии и путям их реализации (Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека, Самаркандский государственный институт иностранных языков, Узбекистан).

Проведённые в мире исследования по данному направлению охватывают ряд приоритетных аспектов: вопросы гармонизации процессов глобализации и культурной преемственности; роль традиционных ценностей в инновационном развитии; методы сохранения культурного наследия и его передачи новым поколениям; интеграционные процессы между традиционными и современными ценностями в жизни общества. Полученные научные результаты по этим направлениям обладают важным теоретическим и практическим значением для общественного прогресса.

Степень изученности проблемы. Необходимость сохранения культурного наследия на основе преемственности и его передачи будущим поколениям во все времена находилась в центре внимания учёных и общественных деятелей. В частности, важное значение придавалось сохранению традиционных ценностей и исторического наследия, переосмыслению культурных богатств с позиции инновационных подходов, а также роли обычаев в укреплении общественной стабильности. Преемственность как основа цивилизационного развития человечества и

фактор устойчивости общества подчёркивает актуальность данного направления исследований. Учёных, проводивших научные изыскания в этой области в последние столетия, можно условно разделить на три группы:

